Ziyorat turizmi obyektlaridan foydalanishda "Halol" standartlar bo'yicha baholash.....	629
Zaripov Toxirjon Yusufboy o'g'li	
O'zbekiston sug'urta bozori infratuzilmasini takomillashtirish.....	633
Abdurazaqov Jasur Abdunasimovich	
Barqaror iqtisodiy o'sishni taminlashda davlat budjetining ahamiyatini oshirish yo'llari.....	637
Sheraliyev Nurbek Jumanazarovich	



TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH JARAYONI VA KREDITLASH AMALIYOTI TAHLILI	640
Sultonova Sevara Faxriddinova	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI MISOLIDA MILLIY MOLIYA BOZORINING SHAKLLANISHI VA BARQAROR RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	643
Samadov Temur Oybek o'g'li	
AN'ANAVIY KURASH VA DYUZDO: TEXNIK VA FALSAFIY JIHATDAN TAQQOSLAMA TAHLIL	647
Tangriyev Abdullo Tovashovich	
DIGITAL SECURITY AND CYBER THREAT FACTORS IN THE TOURISM INDUSTRY	650
Olimov Davron Olimovich	
JAHON SAVDO TASHKILOTI SIYOSATINING RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR IQTISODIYOTIGA TA'SIRI	653
Jalolov Umidjon Xudoyberdi o'g'li, Yegamberdiyev Shuxrat Satimbayevich	
РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ В КОНТЕКСТЕ УКРЕПЛЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ УЗБЕКИСТАНА	657
Турсунбоева Нилуфар Отабековна	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI	659
Faxriddinov Bahriddin	
AGROLOGISTIKA TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISHNING AGROEKSPORT SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	663
Faxriddinov Bahriddin	
MINTAQAVIY IQTISODIY SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISHDA INSON KAPITALI VA IJTIMOY SALOHİYATNING O'RNI	667
Zoirov G'olibjon Toshtemir o'g'li	
XORIJIY INVESTITSİYALARINING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI	670
Srajjidinova Nodira Shavkatovna	
STRESS-TESTLASH AMALIYOTI VA UNING TIJORAT BANKLARI BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASHDAGI ROLI	675
Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich	
MAMLAKATIMIZDATURIZM SOHASIGA INVESTITSİYALAR KIRITILISH HOLATI VA SOHADAGI O'ZGARISH TENDENSIYALARI	679
Salomov Farrux Komil o'g'li, Hasanova Parvina	
"AKADEMIK KO'NIKMA VA KASBIY KOMPETENSIYA" FANIDA MUSTAQIL TA'LIMNING PEDAGOGIK MODELLARI: ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAHLIL VA TAKLIFLAR	683
Doniyorova Gulnoza Anvar qizi	
TA'LIM TIZMINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH ORQALI INSON KAPITALINI MUSTAHKAMLASH	688
Oripova Madinabonu Mansur qizi	
REKLAMADA RANG VA PSIXOLOGIYA	691
Muxtorxonova Ozoda Axror qizi	
GO'SHT VA SUT ISHLAB CHIQRISHNI RIVOJLANITIRISH YO'NALISHLARI	694
Qurbonov Alisher Boboqulovich, Abdullaev Jasur Jabborovich	
CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR INVENTORY AUDIT AND CONTROL	699
Nigora Alimkhanova	
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ: ВОЗМОЖНОСТИ ПЕРСОНАЛИЗАЦИИ, ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	703
Камалова Малика Низамовна, Очилов Акрам Одилович	
TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI BAHOLASHDA TAHLILY USULLARNING AHAMIYATI	708
Alimxanova Nigora Alimxanovna	
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ И УСЛОВИЯ ПЕРЕХОДА К ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ: АНАЛИЗ МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА И ИХ ТРАНСФОРМАЦИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	712
Хусайнов Равшан Рахимович	



TRANSFORMATION OF ORGANIZATIONAL CULTURE IN THE CONTEXT OF DIGITALIZATION: MODERN APPROACHES AND CHALLENGES.....	717
Yuldasheva Makhliyo Bakhtiyar qizi	
QISHLOQ HUDUDLARI IJTIMOIIY INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBALARI VA O'ZBEKISTON SHAROITIDA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	723
M.Yu.Alimova, Rustamova Gavhar Baxtiyarovna	
HR-MENEJMENT SIFATINING TEKSTIL KORXONALARIDA MEHNAT UNUMDORLIGI VA IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....	726
Yormatov Ilmidin Toshmatovich, Ochilov Akram Odilovich	
TURIZM SOHASIDA GLOBAL IMKONIYATLAR VA RAQAMLI HAMKORLIK.....	731
Salomov Farrux Komil o'g'li	
AUDIT NATIJALARINING SOLIQ TEKSHIRUVLARIGA TA'SIRI	736
Bakirov Norbek Norquchqor o'g'li	
OPTIMIZING GRADUATE ENROLLMENT MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS	741
Tilakov Sherzod Akbarovich	
FACTORS OF ECONOMIC DEVELOPMENT OF PRIVATE BUSINESS ENTITIES AND PRINCIPLES ENSURING THEIR SUSTAINABLE OPERATION.....	745
Ochilov Akram Odilovich, Alimova Munisa Yulchiyevna	
QASHQADARYO VILOYATI SANOAT AGLOMERATSIYA KLASTERINI STRATEGIK REJALASHTIRISH VA OPTIMAL JOYLASHTIRISH	750
Ochilov Akram Odilovich, Xidoyatova Nigora Shorakibovna	
ZAMONAVIY BOZOR MUNOSABATLARI SHAROITIDA MEHNATGA LAYOQATLI YOSHDAN KATTA AHOLIGA XIZMAT KO'RSATISHNI RIVOJLANTIRISH.....	759
Ochilova Nargiza Akramovna	
"AGLOMERATSIYA IQTISODIYOTLARI VA KICHIK SANOAT ZONALARI SAMARADORLIGI"	762
Xidoyatova Nigora Shorakibovna	
"A NEW METHODOLOGY FOR DEVELOPING GREEN TOURISM EXPORTS USING DIGITAL TECHNOLOGIES"	766
Kurbanova Malika Ahmad qizi	
O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGI TARMOG'IDA SUG'ORISH TIZIMLARIDAN FOYDALANISH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH.....	770
Xolliyev Sh.B.	
EKOLOGIK TURIZM RIVOJIDA UY MEHMONXONALAR TIZIMI VA YASHIL MEHMONXONA KONSEPSIYASINING IQTISODIY ASOSLARI	773
Abdushukurova Sevinch, Sh.Xolliyev	



EKOLOGIK TURIZM RIVOJIDA UY MEHMONXONALAR TIZIMI VA YASHIL MEHMONXONA KONSEPSIYASINING IQTISODIY ASOSLARI

Abdushukurova Sevinch

QarDU, Iqtisodiyot fakulteti 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar
Sh.Xolliyev

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishda asosiy infratuzilma komponentlaridan biri bo'lgan joylashtirish xizmatlarini takomillashtirish masalasi tahlil qilinadi. Xususan, uy mehmonxonalari tizimini shakllantirish va "yashil mehmonxona" tushunchasini kengaytirish orqali ekoturizmning barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy omillar va investitsion imkoniyatlar o'rganiladi. Shuningdek, mehmonxona biznesidagi xarajatlar samaradorligi, ekologik sertifikatlash tizimlari, yashil investitsiyalar hamda davlat tomonidan taqdim etilayotgan subsidiya va grantlar kabi iqtisodiy instrumentlarning ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: ekologik turizm, yashil mehmonxona, uy mehmonxonalari, barqaror turizm, investitsion muhit, xizmatlar bozori, ekologik sertifikatlash, yashil iqtisodiyot, subsidiyalar, franchayzing.

Abstract: This article examines the improvement of accommodation services as one of the key infrastructure components in the development of ecotourism in Uzbekistan. In particular, it explores the economic factors and investment opportunities that contribute to the sustainable growth of ecotourism through the development of guesthouse systems and the expansion of the "green hotel" concept. The study also analyzes the importance of economic instruments such as cost efficiency in hotel management, environmental certification systems, green investments, as well as state-provided subsidies and grants.

Key words: ecotourism, green hotel, guesthouses, sustainable tourism, investment climate, service market, environmental certification, green economy, subsidies, franchising.

Аннотация: Данная статья анализирует вопросы совершенствования услуг размещения как одного из ключевых инфраструктурных компонентов развития экологического туризма в Узбекистане. В частности, исследуются экономические факторы и инвестиционные возможности, влияющие на устойчивое развитие экотуризма за счёт формирования системы гостевых домов и расширения концепции «зелёных гостиниц». Кроме того, рассматривается значение таких экономических инструментов, как эффективность затрат в гостиничном бизнесе, системы экологической сертификации, «зелёные» инвестиции, а также предоставляемые государством субсидии и гранты.

Ключевые слова: экологический туризм, зелёная гостиница, гостевые дома, устойчивый туризм, инвестиционная среда, рынок услуг, экологическая сертификация, зелёная экономика, субсидии, франчайзинг.

KIRISH

O'zbekistonda turizm sohasi jadal rivojlanib, mamlakat yalpi ichki mahsulotiga (YalM) sezilarli hissa qo'shmoqda. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida davlat tomonidan bir qator iqtisodiy choralar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi PQ-238-son qarori mehmonxona sektorida investitsion faollikni oshirish, raqobatbardoshlikni mustahkamlash va xizmatlar bozorini diversifikatsiya qilishni nazarda tutadi [1]. Mazkur hujjat doirasida yangi mehmonxonalar qurish va ularni jihozlash uchun subsidiyalar ajratish hamda franchayzing asosida moliyalashtirish tartibi belgilangan. Bu esa xorijiy investorlarni jalb qilish, turizm xizmatlari bozorini kengaytirish va innovatsion biznes modellarini qo'llash imkonini yaratadi.



Biroq mehmonxona xizmatlarining geografik taqsimoti tahlili shuni ko'rsatadiki, chekka hamda ekologik jihatdan boy hududlarda turizm infratuzilmasi hali yetarlicha rivojlanmagan. Shu sababli, ekoturizm xizmatlar bozori to'liq shakllanmagan bo'lib, bu ushbu segmentga investitsiyalar kirib kelishini cheklab qo'ymoqda. Mehmonxonalar sonining oshib borayotganiga qaramay, ekologik turizm yo'nalishida barqaror joylashtirish xizmatlari tizimi hali mavjud emas. Bundan tashqari, an'anaviy mehmonxonalar yuqori operatsion xarajatlar, energiya iste'moli va ortiqcha oziq-ovqat isrofi kabi muammolarga duch kelmoqda, bu esa ekologik barqarorlik tamoyillariga zid keladi.

Shu nuqtai nazardan, ekoturizm uchun uy mehmonxonalari modeli va "yashil mehmonxona" konsepsiyasi muhim iqtisodiy yechim sifatida qaralishi mumkin. Uy mehmonxonalari kichik va o'rta biznes subyektlari tomonidan boshqarilib, mahalliy aholi bandligini oshirish, hududiy iqtisodiyotni faollashtirish va xizmatlar bozorining rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yashil mehmonxona tushunchasi ekoturizm segmentida energiya samaradorligi, uglerod izini kamaytirish va ekologik menejment tamoyillari orqali operatsion xarajatlarni optimallashtirish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda O'zbekistonda mehmonxona sektori jadal rivojlanayotgan bo'lsa-da, mavjud mehmonxonalar asosan urbanizatsiyalashgan hududlarda joylashgan bo'lib, ekologik va etno-turizmni rivojlantirishda ularning xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari cheklangan. Shu sababli, ekologik turizmni rivojlantirishda mahalliy aholi bilan hamkorlikda uy mehmonxonalari tizimini shakllantirish muhim iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega. Bunday model turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish bilan birga, mahalliy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatib, aholi bandligini oshirish va barqaror daromad manbalarini yaratishga yordam beradi.

Mahalliy aholiga tayangan holda turizmni boshqarish masalasida Jamal va Watt tadqiqotlarida axborotlashtirilgan fuqarolik jamiyatining turizm rivojlanishidagi o'rni alohida ta'kidlanadi. Ular sayyohlik yo'nalishlari bo'yicha qarorlar qabul qilishda fuqarolar ishtirokini kuchaytirish hamda turizm boshqaruviga "performativ" yondashuv asosida yondashish zarurligini ilgari suradi [5]. Bu esa turizmga demokratik ishtirokni kuchaytirib, mahalliy jamoalarning iqtisodiy manfaatlarini samarali aks ettirishga xizmat qiladi.

Ekologik turizm asosan shahar tashqarisidagi tabiiy hududlarda rivojlanadi, bu esa turar joy xizmatlarining yangi formatlarini talab qiladi. Han va boshqalarning (2009, 2018) tadqiqotlariga ko'ra, yashil turmush tarzini qo'llab-quvvatlovchi mehmonxona iste'molchilari ekologik toza xizmatlarni taklif etuvchi yashil mehmonxonalarni afzal ko'radilar [2][3]. Bu fakt yashil mehmonxonalarga bo'lgan talabning ortib borayotganini va yashil iqtisodiyot konsepsiyasining mehmonxona sektoriga faol tatbiq etilayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, Coles va boshqalar (2016) turizm va mehmondo'stlik sektorining barqaror rivojlanish maqsadlariga qanday hissa qo'shishi mumkinligini tahlil qilgan. Ularning fikricha, turizmni ekologik barqarorlik nuqtayi nazaridan rivojlantirish uchun resurslardan oqilona foydalanish, uglerod izini kamaytirish va yashil sertifikatlash tizimlarini joriy etish muhim omil hisoblanadi [6].

Bundan tashqari, yashil mehmonxonalar tizimini shakllantirish ekologik turizmga va atrof-muhitga yuqori darajada ijobiy ta'sir ko'rsatishi bo'yicha qator amaliy va ilmiy tadqiqotlar mavjud. Jumladan, Ganadagi mehmonxonalar tarmog'ida ekologik amaliyotlarning muvaffaqiyatli joriy etilgani qayd etilgan. Mensah (2006) tadqiqotlarida Ganadagi aksariyat mehmonxonalarda atrof-muhitni muhofaza qilish siyosati ishlab chiqilgani va eng samarali uchta ekologik amaliyot qo'llanganligi ko'rsatilgan:

- energiyani tejoychi lampalardan foydalanish (94,2%),
- choyshab va sochiqlarni mehmonlar tomonidan qayta ishlatish (74%),
- xodimlarga ekologik ta'lim berish va ularni muntazam o'qitish (72%).

Ushbu amaliyotlar yashil mehmonxona konsepsiyasini shakllantirish bilan birga, ekologiyaga ijobiy ta'sir ko'rsatgan va turizmning barqaror rivojlanishini rag'batlantirgan [4].

Yuqoridagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ekologik turizmni rivojlantirishda uy mehmonxonalari modeli va yashil mehmonxona tizimi nafaqat ekologik muhitni saqlashga, balki mahalliy aholining iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Shu bois, O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda ushbu tamoyillarga asoslangan iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bu bo'limda tadqiqot sohasi, namunaviy loyihalash va tadqiqot usullari qisqacha muhokama qilingan. Tadqiqotni samarali olib borish uchun xalqaro tajribalar, ilmiy ishlar, adabiyotlar hamda arxiv materiallari chuqur o'rganildi. Shuningdek, statistik ma'lumotlar tahlil qilinib, strukturaviy-funksional tahlil, umumlashtirish, tarixiy-geografik modellash kabi ilmiy usullardan foydalanildi. Natijalar va munozaralar bo'limida tadqiqot natijalari tahlil qilinib, ularning asoslanishi va to'g'ri talqin qilinishi ta'minlandi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlar bilan



taqqoslash ishlari amalga oshirildi. Tadqiqot davomida aniqlangan muammolar tahlil qilinib, ularning yechimiga doir aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ekologik turizmni rivojlantirish bugungi kunda global muammo bo'lib, uning samarali tashkil etilishi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va mahalliy aholining iqtisodiy farovonligini oshirish bilan chambarchas bog'liq. Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda ekoturizm dunyo bo'ylab turizmning eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylandi va uning global turizm bozoridagi ulushi 15% dan oshdi [7]. Shunga qaramay, O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishda asosiy muammolardan biri bu chekka hududlarda mehmonxona infratuzilmasining yetishmovchiligidir. Bu esa turizm iqtisodiyotining to'liq ishlamasligiga olib keladi. Tahlil natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

Uy mehmonxonalari tizimi iqtisodiy samaradorlikni oshiradi – bu xalqaro tajribalarda shuni ko'rsatadiki, mahalliy aholi ishtirokida tashkil etilgan uy mehmonxonalari turizm infratuzilmasini kengaytirishning eng arzon va samarali usullaridan biridir. Masalan, Nepalda mahalliy aholi tomonidan boshqariladigan mehmonxonalar turistlar oqimini 30% ga oshirgan va hududdagi daromadni 45% ga ko'paytirgan.

Ekologik barqarorlik va yashil mehmonxonalar modeli – BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP) ma'lumotlariga ko'ra, yashil mehmonxonalar an'anaviy mehmonxonalarga qaraganda 20% kamroq energiya va 30% kamroq suv sarflaydi [8]. Ganadagi yashil mehmonxonalar tajribasi shuni ko'rsatdiki, energiya tejovchi lampochkalar (94,2%), choynab va sochiqni qayta ishlatish (74%) hamda xodimlarni ekologik jihatdan o'qitish (72%) yashil mehmonxonalar samaradorligini oshirishda muhim omillardan hisoblanadi [4].

1-jadval. Ekologik turizm yashil mehmonxonalar tizimining tahlili¹

Ko'rsatkich	An'anaviy mehmonxonalar	Yashil mehmonxonalar	Farqi (%)
Elektr energiyasi iste'moli (kVt/soat)	5000	3500	-30%
Suv sarfi (litr/kun)	2000	1200	-40%
Chiqindilar hajmi (kg/kun)	500	250	-50%
Ishchi o'rinlari soni	50	60	+20%
Ekologik sertifikatlariga ega	Yo'q	Ha	100% o'sish

Statistik ma'lumotlar esa O'zbekistonda yashil mehmonxonalarning istiqbolli ekanligini tasdiqlaydi ya'ni 2023-yilda Turizm qo'mitasi va Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, O'zbekistondagi mehmonxonalar sohasining atigi 10% yashil standartlarga mos keladi, ammo 70% sayyoh ekologik toza mehmonxonalarda yashashni afzal ko'rishini bildirgan. Bu esa yashil mehmonxonalar yaratish istiqbolli yo'nalish ekanligini ko'rsatadi.

Xalqaro moliyaviy dasturlarni jalb qilish zarurati juda ham muhim hisoblanadi. Jahon bankining 2022-yildagi hisob-kitoblariga ko'ra, yashil turizm infratuzilmasiga investitsiyalar 2030-yilgacha global turizm daromadlarini 25% ga oshirishga yordam berishi mumkin [9]. O'zbekistonda yashil mehmonxonalar va uy mehmonxonalari rivojlantirish uchun xalqaro grant va moliyaviy dasturlarni jalb qilish muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish uchun yashil mehmonxonalar tizimi va uy mehmonxonalari muhim ahamiyatga ega. Ularning rivojlanishi ekologik barqarorlikni ta'minlash, mahalliy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash va xalqaro turizm talablariga mos ravishda yangi imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi. Shu sababli, yashil mehmonxonalar tizimini joriy etish va uni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ekologik turizmni rivojlantirishda yashil mehmonxonalar tizimini shakllantirish va uy mehmonxonalari modelini keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda

1 Muallif tomonidan tayyorlandi



ekoturizm infratuzilmasi hali to'liq rivojlanmagan bo'lib, ayniqsa chekka hududlarda mehmonxona xizmatlari yetishmovchiligi sezilarli darajada mavjud. Xalqaro tajribalar esa ekologik barqaror turizmni rivojlantirish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish, mahalliy aholining turmush darajasini oshirish va atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish mumkinligini isbotlamoqda. Yashil mehmonxonalar an'anaviy mehmonxonalarga nisbatan ekologik jihatdan samarali bo'lib, energiya va suv iste'molining kamayishiga, chiqindilarni qayta ishlash tizimining yo'lga qo'yilishiga va mahalliy ekologik muhitning yaxshilanishiga xizmat qiladi. Kanada va boshqa rivojlangan mamlakatlarda yashil mehmonxonalar tizimi muvaffaqiyatli joriy etilgan bo'lib, bu tajribani O'zbekistonda ham qo'llash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, uy mehmonxonalari tizimi mahalliy aholini turizm jarayoniga jalb qilish orqali iqtisodiy daromadning oshishiga yordam beradi. Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Yashil mehmonxonalar tizimini keng joriy etish. Yashil mehmonxonalarga soliq imtiyozlari va subsidiya berish tizimini ishlab chiqish va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy qilish va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni rag'batlantirish. Mehmonxonalar uchun ekologik sertifikatlashtirish tizimini yo'lga qo'yish va xalqaro talablarga mos kelishini ta'minlash.

2. Uy mehmonxonalarni rivojlantirish. Mahalliy aholiga uy mehmonxonalarni tashkil etishni qo'llab quvvatlash, turizm sohasi vakillari va tadbirkorlar uchun maxsus treninglar tashkil qilish shu bilan bir qatorda uy mehmonxonalari va ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha davlat-xususiy sheriklik dasturlarini ishlab chiqish.

3. Ekologik turizm bo'yicha huquqiy bazani takomillashtirish. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida yashil turizm va mehmonxonalar bo'yicha alohida normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, hamda ekoturizm faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun davlat tomonidan grant va imtiyozli kredit ajratish dasturlarini ishlab chiqish.

4. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish. Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) va BMTning atrof-muhit dasturlari (UNEP) bilan hamkorlikda ekologik mehmonxonalar bo'yicha xalqaro tajribalarni joriy etish va ekologik turizmni rivojlantirish bo'yicha xalqaro moliyaviy resurslarni jalb qilish va grant loyihalarini amalga oshirish.

5. Ekologik marketing va targ'ibot ishlarini kuchaytirish. Yashil mehmonxonalar va ekoturizmni ommalashtirish maqsadida reklama va axborot kampaniyalarini olib borish, hamda ekoturizmni rivojlantirishga qaratilgan xalqaro turistik yarmarkalarda faol ishtirok etish.

Yuqoridagi takliflar amalga oshirilsa, O'zbekistonda ekologik turizm jadal rivojlanadi, yashil mehmonxonalar va uy mehmonxonalari tizimi kengayadi hamda xalqaro ekoturizm talablariga javob beradigan infratuzilma shakllanadi. Natijada, mahalliy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatilib, atrof-muhit muhofazasi bo'yicha samarali chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 07.09.2024 yildagi 550-son <https://lex.uz/ru/docs/-7104874>
2. Heesup Han, Li-Tzang (Jane) Hsu, Jin-Soo Lee, Empirical investigation of the roles of attitudes toward green behaviors, overall image, gender, and age in hotel customers' eco-friendly decision-making process, International Journal of Hospitality Management, Volume 28, Issue 4, 2009, Pages 519-528, ISSN 0278-4319,
3. Heesup Han, Jin-Soo Lee, Ho Le Thu Trang, Wansoo Kim, Water conservation and waste reduction management for increasing guest loyalty and green hotel practices. International Journal of Hospitality Management, Volume 75, 2018, Pages 58-66, ISSN 0278-4319
4. Ishmael Mensah, Environmental management practices among hotels in the greater Accra region, International Journal of Hospitality Management, Volume 25, Issue 3, 2006, Pages 414-431, ISSN 0278-4319
5. Jamal, T. Watt, E.M. Climate change pedagogy and performative action: toward community-based destination governance Tourism Governance Routledge, 2013; 171-188
6. Tim Coles, Claire Dinan, Neil Warren, Energy practices among small- and medium-sized tourism enterprises: a case of misdirected effort?, Journal of Cleaner Production, Volume 111, Part B, 2016, Pages 399-408, ISSN 0959-6526.
7. UNWTO. (2023). Global Ecotourism Market Analysis. Retrieved from www.unwto.org
8. UNEP. (2022). Sustainable Hospitality: Energy and Water Consumption Report. Retrieved from www.unep.org
9. World Bank. (2022). Financing Green Tourism Infrastructure: Economic Benefits and Strategies. Retrieved from www.worldbank.org
10. <https://www.ifc.org/en/home>
11. <https://uzbektourism.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. aprel. № 3. navbatdan tashqari son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>